

## XONAKILASHTIRILGAN QUSHLARNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Ruiddinov A.

Qarshi Davlat universiteti (O‘zbekiston)

### ABSTRACT

Domesticated birds are important in human life. People use them to get meat, eggs, feathers. Examples of domesticated birds are chickens, turkeys, geese, ducks, pigeons, and grouse. The origin, ecological and biological characteristics of these birds are mentioned below.

**Keywords:** chicken, turkey, goose, duck, pigeon, sesarka, egg, chick, Bankiv, kholmogor, tulguz, ruan.

### ANNOTATSIYA

Odamlar hayotida xonakilashtirilgan qushlar muhim ahamiyatga ega. Ulardan odamlar go‘sht, tuxum, par olish uchun foydalanadilar. Xonakilashtirilgan qushlarga tovuq, kurka, g‘oz, o‘rdak, kaptar, sesarka kabi qushlar misol bo‘ladi. Quyida ushbu qushlarning kelib chiqishi, ekologik va biologik xususiyatlari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** tovuq, kurka, g‘oz, o‘rdak, kaptar, sesarka, tuxum, jo‘ja, Bankiv, xolmogor, tulg‘uz, ruan.

Ma’lumki, ibridoiy jamoa davridan boshlab, insonlar o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida hayvonlarni qo‘lga o‘rgata boshlagan. Dastlab tovuq, kurka, g‘oz, o‘rdak, kaptar, sesarka kabi qushlar qo‘lga o‘rgatilgan. Ular orasidan tovuqlarni oladigan bo‘lsak, xonaki tovuq ajdodi Bankiv tovug‘i bo‘lib, eramizdan bir necha yuz yil ilgari Hindistonda xonakilashtirilgan. Keyinchalik boshqa mamlakatlarga tarqala boshlagan.

Hozirgi kunda ko‘plab xonaki tovuq zotlari yaratilgan. Ular orasida tuxum, go‘sht, ham tuxum ham go‘sht beradigan zotlari bor. Ukraina ushankasi, yalang‘och bo‘yinli semigrad, rus oq tovug‘i, langshanlar xonaki tovuq zotlaridir. Xonaki tovuq zotlari bugungi kunda, parrandachilik fabrikalarida boqib ko‘paytirilmoqda.

Kurka eramizdan oldin Meksikada xonakilashtirilgan. Uning ajdodi yovvoyi kurkadir (*Meleagris gallopavo*). Kurka Yevropaga 1530 yillarda keltirilgan, keyinchalik boshqa mintaqalarga tarqala boshlagan. Xonaki kurkalar ichida oq rus kurkasi diqqatga sazovordir. Jussasi kichik bo‘lsa ham serpushtdir. Bundan tashqari noqulay muxitga ham ancha chidamli.

G‘ozlar yovvoyi kulrang g‘ozdan xonakilashtirilgan. Bizdagi xonaki g‘ozlardan biri xolmogor zoti bo‘lib, og‘irligi 10 kg gacha boradi. Bu g‘oz ko‘p tuxum qo‘yadi, yaxshi semiradi. Fransiyada yaratilgan tulg‘uz g‘ozining og‘irligi esa, 16 kg gacha boradi. Bu g‘oz oz tuxum qo‘ysada, asosan mazali go‘shti uchun boqiladi.

O‘rdaklarning barcha xonaki zotlarini ajdodi yovvoyi o‘rdakdir (*Anas platyrhynchos*). Xonaki o‘rdak yovvoyisiga nisbatan oz o‘zgargan bo‘lsa ham, undagi o‘zgarish g‘ozlardagiga qaraganda ko‘proqdir. Yovvoyi o‘rdak ko‘pi bilan 1,5 kg, urg‘ochisi esa 1 kg keladigan bo‘lsa, ruan zotli xonaki o‘rdak o‘rtacha 3-3,5 kg, ba’zida 5 kg gacha va bundan ham ortiq bo‘lishi mumkin.

Sesarka nomli qushlar eramizdan oldin Afrikada xonakilashtirilgan. Ular yumshoq va mazali go‘shti hamda yiliga 60-100 donagacha tuxum berishi bilan qadrlanadi. Sesarkalar ovqat tanlamaydi.

Kaptarlar yovvoyi ko‘k kaptar (*Columba livia*) zotidan, bundan 5000 yil oldin Misrda xonakilashtirilgan. Ularning zotlalari 3 ta asosiy guruhga: dekorativ, sergo‘sht va pochta kaptarlarga bo‘linadi.

Qushlar-O‘zbekiston faunasidagi umurtqali hayvonlar orasida turlarga boy, eng xilma-xil guruh. Respublikamiz hududida ularning 432 turi uchraydi. Ularning barchasi to‘shtojlilar kenja sinfiga mansub bo‘lib, 18 turkumni tashkil etadi.

Mamlakat hududida 60 turdan ortiq ovlanadigan qushlar yashaydi. Tovuqlar turkumiga mansub kaklik, bedana; g'ozsimonlardan – dala g'ozi; o'rdaksimonlardan – churrak, haydar kokil, olaqanot suqsun va suqsurlar, O'zbekistonda in qurib yashaydigan turlardan kulrang g'oz, kulrang o'rdak, qizil bo'yin o'rdak, olmabosh o'rdak, olaqanot (oqqanot, chag'irqanot) ham ovlanadi. Bu qushlar sovuq qattiq kelmagan yillari bemalol qishlaydi, ammo sovuq kuchli bo'lsa, ko'pchiligi qirilib ketadi. Yirik baliqchi qushlardan – katta qiziloyoq baliqchi, qiziloyoq, suvtarg'oqlar, respublika hududidan uchib o'tadigan o'tkinchi baliqchi qush – loyxo'raklar, oxirgi yillarda oddiy hamda yirik g'urraqlar ko'plab, ko'k kaptar va boshqa turdag'i kaptarlar kamroq miqdorda ovlanadi. Turnasimonlar turkumidan, ayniqlsa, qashqaldoqlar ko'proq ovlanadi. Ular kichikroq ko'llarda in qo'yib yashaydi; sovuq tushishi bilan ko'pchiligi issiq joylarga uchib ketadi; ma'lum bir qismi esa qishlab qoladi.

Odamlar qadimdan hayvonlardan o'z maqsadi yo'lida foydalanib kelgan. Ularning faoliyati hayvonlarga katta ziyon keltirmagan. Yer yuzida aholi sonining ortishi, chorva mollarining tobora ko'payib borishi, ekin maydonlarining kengayishi, shaharlar, qishloqlar va sanoat korxonalarining qurilishi, qo'riq yerlarni o'zlashtirishda sug'orish uchun ko'plab suv inshootlarining qurilishi hayvonlar yashashi sharoitining o'zgarishiga va ular sonining keskin kamayishiga sabab bo'ldi. Hayvonlarning ko'plab qirilib ketishi ovchilik qurollarining takomillashib borishi va ko'plab tartibsiz ovlash, yashash muhitining ifloslanishi ham sabab bo'lgan.

Tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMXI) ning ma'lumotlariga qaraganda 20 asr boshlariga kelib ko'plab qushlar va 600 turga yaqin boshqa hayvonlar yo'qolish arafasida turibdi.

Hozir Yer yuzida aniqlangan hayvonlar turlari soni 1 585000 ni tashkil etadi (O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi, 2019). Ayrim manbalarga qaraganda turlar soni bir necha millionga yetadi.

Inson o'z eqtiyoji uchun uy parrandalari - tovuq, o'rdak, g'oz, kurka va boshqalarning har xil zotlarini yaratgan. Bundan 4500 yil ilgari qadimgi Hindistonda

yashovchi xalqlar yovvoyi bankiv tovuqlarini xonakilashtirganlar. Hozirgi tovuqlar bir-biridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladigan turli xil zotlardan iborat. Beradigan mahsulotiga ko‘ra tovuqlar go‘sht beruvchi (kornuel, plimutroq) tuxum beruvchi (rus oq tovug‘i, lekgorn) tuxum-go‘sht beruvchi (zagorsk, nyugempshir, pervomaysk) zotlariga ajratiladi. Har bir tuxum beruvchi tovuqdan bir yilda 200-300 dona tuxum olish mumkin. Go‘sht beruvchi zotlarning og‘irligi 3-4 kg va undan ortiq bo‘ladi. Ular broyler olish uchun boqiladi. Ular ikki oy boqiladi. Bu muddatda og‘irligi 1,6 kg va undan ortiq bo‘ladi.

O‘rdaklar ham bundan 3000 yil ilgari xonakilashtirilgan. Ular asosan go‘shti uchun boqiladi. O‘rdaklarni baliqchilik xo‘jaliklarida boqish qulay. Chunki o‘rdaklarning axlati suvda baliqlar uchun oziq bo‘ladigan turli organizmlarni ko‘paytiriladi.

Kurkalar Meksika hindulari tomonidan xonakilashtirilgan. Ular uy parrandalari orasida eng yirigi bo‘lib, og‘irligi 16 kg ga yetadi.

Aholini go‘sht va tuxum mahsulotlari bilan ta‘minlash uchun parrandalar (asosan tovuqlar) maxsus parrandachilik fabrikalarida boqiladi. Binolardagi harorat, namlik va havo tarkibini avtomatlar boshqarib turadi. Qishda kun uzunligini oshirish bilan tovuqlarning tuxum qo‘yishini ko‘paytirish mumkin. Parrandachilik fabrikalarida nasl beruvchi va tuxum qo‘yuvchi parrandalar, jo‘ja ochirish (inkubatsiya) sexlari, go‘sht ishlab chiqarish va chiqindilarga ishlov berish sexlari, go‘sht yetishtirish fabrikalarida bundan tashqari, go‘sht uchun boqiladigan jo‘jalar- broylerlar o‘stiradigan yem ham bo‘ladi. Bu sexda jo‘jalar 1,4-1,5 kg ga yetguncha 60-70 kun boqiladi.

Xonakilashtirilgan qushlar hayotimizni turli jahbalarida aholini tuxumga, go‘shtga bo‘lgan talabini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda xonaki qushlar zoti juda ko‘p va kundalik turmushimizni ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Qushlardan bulbul, bedana, tovus, insonlarga istirohat bog‘lari va dam olish maskanlarida egzotik zavq ulashadi.

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Г.Н. и др. Основи зоологии и зоогеографии. Москва, Академия, 2001. С.200
2. Дадаев С., Сапаров Қ. Зоология (хордалилар). Тошкент, “Иқтисод- молия”, 2019.262-334 бетлар.
- 3.Моисеев В.А., Кашкаров Д.Ю. Ўзбекистоннинг ҳайвонот дунёси Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980 йил.
- 4.Шерназаров Э.,Вашетко Э.,Крейцберг Е.,Бикова Е., Хуршут Э. Ўзбекистоннинг умуртқали ҳайвонлари. ЎзР ФА “Фан” нашриёти, 2006 й., 47-94 бетлар.